

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 11 | **pp.** 94-102 | **ISSN**: 2181-1865
Available online https://finance.tsue.uz/index.php/afa

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQARORLASHTIRISHDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Yusubov In'omjon Ikram o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-pochta: Yusubovinomjon1@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-3463-3007

Annotatsiya: *Maqolada Xorazm viloyatida inson kapitalining to‘planishi va uning hudud iqtisodiyotida qiymatga aylanishi o‘rtasidagi farq 2010–2025-yillarga oid rasmiy statistika asosida o‘rganilgan. Hududiy inson kapitali qaytimi koeffitsienti, real mehnat unumdorligi qatori, regressiya modellari va Okun qonuni yordamida viloyat aholisi respublika o‘rtachasidan 37 foiz kam qiymat yaratayotgani, talabalar soni 5,8 baravar oshgan bo‘lsa-da, unumdorlikni asosan investitsiyalar harakatlantirayotgani aniqlandi. Mehnat migratsiyasi, ta’lim va mehnat bozori nomuvofiqligi hamda ayollar bandligi bo‘yicha takliflar berildi.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, mintaqa iqtisodiyoti, barqarorlik, mehnat unumdorligi, mehnat migratsiyasi, oliy ta’lim, HCI+, Xorazm viloyati.*

Аннотация: *На основе официальной статистики за 2010–2025 годы исследуется разрыв между накоплением человеческого капитала в Хорезмской области и его превращением в стоимость в экономике региона. С помощью коэффициента региональной отдачи человеческого капитала, ряда реальной производительности труда, регрессионных моделей и закона Оукена установлено, что население области создаёт на 37 процентов меньше стоимости, чем в среднем по стране, а при росте числа студентов в 5,8 раза производительность определяется главным образом инвестициями. Предложены меры по трудовой миграции, несоответствию образования и рынка труда, занятости женщин.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, региональная экономика, устойчивость, производительность труда, трудовая миграция, высшее образование, HCI+, Хорезмская область.*

Abstract: *Drawing on official 2010–2025 statistics, the article examines the gap between the accumulation of human capital in the Khorezm region and its conversion into value in the regional economy. Using a regional human capital return coefficient, a real labour productivity series, regression models and Okun’s law, the study finds that the region’s population creates 37 percent less value than the national average and that, although the number of students rose 5.8 times, labour productivity is driven mainly by investment. Practical proposals are made on labour migration, the education–labour market mismatch and female employment.*

Key words: *human capital, regional economy, stability, labour productivity, labour migration, higher education, HCI+, Khorezm region.*

Kirish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi inson kapitalini rivojlantirishni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2023). 2024-yil dekabrda qabul qilingan PF-223-sonli Farmon esa hududlarda o‘sish va bandlik uchun javobgarlikni bevosita mahalliy hokimliklarga yukladi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2024). Hudud darajasida bu vazifa ikki oddiy savolga borib taqaladi: viloyat o‘z aholisining bilim va ko‘nikmasini qancha qiymatga aylantiryapti va bu qiymat viloyatning o‘zida qolyaptimi?

Xorazm viloyati bu savollarni tekshirish uchun qulay misol bo’la oladi. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatda 2 075,0 ming kishi yashaydi, aholi bir yilda 1,7 foizga ko‘paygan (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, 2026a). 2025-yilda yalpi hududiy mahsulot (YaHM) 62 987,5 mlrd so‘mga yetib, 7,9 foizga o‘sdi (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, 2026b). Oliy ta’lim tashkilotlari soni 2017-yildagi bittadan sakkiztaga yetdi. Ammo shu bilan bir vaqtda 2026-yil avgust holatiga viloyatdan 102 ming kishi mehnat migratsiyasida bo‘lgan, ishsizlar soni esa 39 ming kishini tashkil etgan (Kun.uz, 2026).@P Tadqiqot maqsadi – Xorazm viloyatida inson kapitalidan foydalanish darajasini rasmiy ma’lumotlar asosida miqdoriy baholash va mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishga xizmat qiladigan amaliy yo‘llarni asoslash. Ishning yangiligi shundaki, viloyat uchun 2010–2025-yillarga oid real mehnat unumdorligi qatori ilk bor qayta tiklandi, inson kapitali qaytimi koeffitsientining dinamikasi kuzatildi va oliy ta’lim bitiruvchilarining mehnat bozorida o‘zlashtirilishi alohida ko‘rsatkich orqali baholandi.

Adabiyotlar sharhi

Inson kapitali tushunchasini ilmiy muomalaga T. Shults kiritgan: u ta’lim va sog‘liqqa sarflangan mablag‘ni iste’mol emas, investitsiya deb qarashni taklif qilgan (Schultz, 1961), G. Bekker esa bu g‘oyani individual qaror modeliga aylantirdi (Becker, 1964). Makro darajada R. Lukas inson kapitalini o‘sishning endogen omili sifatida modelga kiritib, uning tashqi samarasini asosladi (Lucas, 1988), P. Romer texnologik taraqqiyotni tadqiqotlarga band inson kapitali hajmiga bog‘ladi (Romer, 1990), N. Menkyu, D. Romer va D. Veyl esa Solou modeliga inson kapitalini qo‘shib, mamlakatlar o‘rtasidagi daromad farqining katta qismini tushuntirdi (Mankiw et al., 1992).

Biroq ta’lim miqdori har doim ham o‘sishga aylanmaydi. L. Pritchett rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim qamrovi keskin oshgani holda unumdorlik deyarli o‘zgarmaganini ko‘rsatib, buni ta’lim sifati past bo‘lishi va malakaga talab cheklanganligi bilan izohlagan (Pritchett, 2001). J. Benxabib va M. Shpigel inson kapitali ishlab chiqarishga bevosita emas, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali ta’sir qilishini aniqlagan (Benhabib & Spiegel, 1994). E. Xanushek va L. Vossmann esa o‘sishni ta’lim yillari emas, egallangan bilim sifati belgilashini isbotlagan (Hanushek & Woessmann, 2008).

Hududiy kesimda N. Djennaioli va hammualliflar 110 mamlakatning 1 500 dan ortiq hududi ma’lumotlarida ta’lim darajasi hududlar o‘rtasidagi rivojlanish farqining eng

kuchli omili ekanini ko‘rsatgan (Gennaioli et al., 2013). F. Dokye va H. Rapoport esa migratsiya bilimli kadrlarni hududdan olib ketishi, ayni paytda pul o‘tkazmalari orqali qisman qaytarishini tahlil qilgan (Docquier & Rapoport, 2012). Xorazm misolida S. Egamov oliy ta’limning viloyat o‘sishiga ijobiy ta’sirini baholagan (Egamov, 2026). Lekin inson kapitali hududda qanchalik qiymat yaratayotganini o‘lchaydigan sodda ko‘rsatkichlar mahalliy ishlarda kam qo‘llanadi; mazkur maqola shu bo‘shliqqa qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Asosiy axborot bazasi – Milliy statistika qo‘mitasining SIAT platformasidagi Xorazm viloyati va respublika bo‘yicha 2010–2025-yillarga oid yillik qatorlar (16 kuzatuv). Ular viloyat statistika boshqarmasi press-relizlari, hokimlik ma’lumotlari va Jahon bankining HCI+ hisoboti bilan to‘ldirildi. Inson kapitalidan hududda foydalanish darajasini baholash uchun hududiy inson kapitali qaytimi koeffitsientini qo‘lladik:

$$K = U_{YaHM} / U_{aholi} \qquad (1)$$

bu yerda U_{YaHM} – viloyatning respublika YaIMidagi ulushi, U_{aholi} – viloyatning respublika aholisidagi ulushi. K = 1 bo‘lsa, viloyat aholisi respublika o‘rtachasi darajasida qiymat yaratadi; K < 1 bo‘lsa, mehnat salohiyatining bir qismi qiymatga aylanmayapti yoki hududdan tashqariga chiqib ketmoqda.

Rasmiy statistikada viloyat YaHMi doimiy narxlarda berilmagani uchun uni aholi jon boshiga YaHMning real o‘sish indekslari zanjiri orqali 2010-yil narxlariga keltirdik va mehnat unumdorligini (LP) real YaHMning iqtisodiyotda bandlar soniga nisbati sifatida hisobladik. Investitsiyalar ham shu implitsit deflyator bilan real ko‘rinishga keltirildi. Unumdorlik omillari quyidagi model orqali baholandi:

$$ln\ LP_t = \beta_0 + \beta_1\ ln\ K_t + \beta_2\ ln\ H_t + \varepsilon_t \qquad (2)$$

bu yerda K_t – bir xodimga real investitsiyalar; H_t – 10 ming aholiga talabalar soni. Model H ning to‘rt yillik lagi bilan va birinchi tartibli farqlarda ham baholandi. Mehnat bozorining o‘sishga sezgirligi Oukun qonuni (Okun, 1962) asosida, ya’ni ishsizlik darajasi o‘zgarishining real YaHM o‘sishiga regressiyasi orqali tekshirildi; 2018-yilda ishsizlikni hisoblash metodologiyasi o‘zgargani fiktiv o‘zgaruvchi bilan hisobga olindi. Bundan tashqari, bandlikning yillik sof o‘sishini shu yilgi oliy ta’lim bitiruvchilari soniga bo‘lib, bitiruvchilarni o‘zlashtirish koeffitsientini (BO‘K) hisobladik.

Tahlil va natijalar

Jadval 1

Xorazm viloyatida inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari[1]


Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2020	2024	2025
Doimiy aholi (yil boshiga), ming kishi	1561.6	1715.6	1866.5	1995.6	2032.4
Iqtisodiyotda bandlar, ming kishi	606.7	696.0	716.4	779.5	840.1
Bandlik darajasi, %	63.2	65.6	63.7	66.2	70.4
Ishsizlik darajasi, %	5.5	5.4	10.9	5.4	4.7

[1] Milliy statistika qo‘mitasi (SIAT) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2020	2024	2025
10 ming aholiga talabalar soni	55.7	49.7	121.2	300.7	321.6
Bitta o‘qituvchiga talabalar soni	14.0	11.3	19.8	29.0	28.9
YaHM (joriy narxlarda), mlrd so‘m	3197.0	9971.0	24668.3	53640.0	62987.5
Mehnat unumdorligi (2010-y. narxlarida), mln so‘m	5.27	7.04	8.44	10.22	10.22
Inson kapitali qaytimi koeffitsienti (K)	0.655	0.720	0.637	0.645	0.629

1-jadvaldan ko‘rinadiki, viloyatda inson kapitali tez to‘planmoqda: 10 ming aholiga talabalar soni 15 yilda 5,8 baravar oshdi, bandlik darajasi 70,4 foizga yetdi, ishsizlik 2020-yildagi 10,9 foizdan 4,7 foizga tushdi. Kambag‘allik darajasi ham 2024-yildagi 11,9 foizdan 2025-yil oxirida 6,7 foizga kamaydi (Xorazm viloyati hokimligi, 2026). Ammo K koeffitsienti deyarli o‘zgarmadi: 2010-yilda 0,655 bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda 0,629 ni tashkil etdi. Joriy yil ma’lumotlari ham shuni tasdiqlaydi: 2025-yil yanvar–sentabrda viloyat respublika YaIMining 3,4 foizini shakllantirgan (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, 2025a), aholidagi ulushi esa 5,41 foiz (Milliy statistika qo‘mitasi, 2026). Demak, Xorazm aholisi respublika o‘rtachasiga nisbatan taxminan 37 foiz kam qiymat yaratmoqda va 15 yil davomida bu farq qisqarmagan.

Buning birinchi sababi – mehnat migratsiyasi. Xorijdagi 102 ming fuqaro viloyatdagi ishsizlardan 2,6 baravar ko‘p (Kun.uz, 2026). Ular qiymatni boshqa mamlakatlarda yaratadi, viloyatga esa faqat pul o‘tkazmalari orqali, iste’mol tomonidan ta’sir qiladi. Shuning uchun aholi jon boshiga real daromadlar 2025-yilda respublika darajasining 104,1 foizini tashkil etgani holda, aholi jon boshiga YaHM 62,9 foizda qolmoqda. Daromad va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bu farq hudud iqtisodiyotini tashqi zarbalarga sezgir qiladi. Ikkinchi sabab – iqtisodiyot tarkibi: 2025-yil yanvar–sentabrda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti 24 352,2 mlrd so‘mni tashkil etdi (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, 2025b), mehnat resurslarining katta qismi esa unumdorligi past bo‘lgan shu sohada band. Uchinchi sabab – ta’lim va mehnat bozorining nomuvofiqligi. Talabalarning 63 foizi o‘qish davrida yetarli amaliy ko‘nikma olmayotganini aytgan, viloyatda esa 50 mingdan ortiq bo‘sh ish o‘rni malakali kadr yo‘qligi sababli to‘ldirilmayapti (Kun.uz, 2026). Inson kapitali va unumdorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik 1-rasmda ko‘rsatilgan.



Grafik 1. Talabalar soni, real YaHM, mehnat unumdorligi va bandlik indekslari (2010-yil = 100)[2]

2017-yildan keyin talabalar soni indeksi keskin ko‘tarilib, 2025-yilda 577 punktga yetdi, mehnat unumdorligi indeksi esa 194, bandlar soni indeksi 138 punktda qoldi. Bundan ham muhimi, unumdorlikning o‘rtacha yillik o‘sishi 2011–2017-yillardagi 5,11 foizdan 2018–2025-yillarda 4,00 foizga sekinlashdi, real YaHM o‘sishining tebranishi esa kuchaydi (standart chetlanish 2,01 dan 3,01 foiz bandiga oshdi). Ya’ni talabalar soni eng tez o‘sgan yillarda unumdorlik o‘sishi tezlashmadi. Bu farqni regressiya tahlili orqali tekshirdik (2-jadval).

Jadval 2

Mehnat unumdorligi va ishsizlik modellari natijalari

	(1)	(2)	(3)	(4)
	ln_LP	**ln_LP**	**Δln_LP**	**Δunemp**
ln_K	0.354*** (3.68)	0.319*** (3.94)		
ln_H	0.043 (0.66)			
ln_H (t–4)		0.016 (0.18)		
Δln_K			-0.001 (-0.03)	
Δln_H			-0.023 (-0.47)	
g (real YaHM o‘sishi)				-0.115 (-1.16)
J2018				3.557*** (3.40)
Constant	6.159*** (13.87)	6.580*** (18.52)	0.047*** (4.55)	0.497 (0.66)
Observations	16	12	15	15
R^2	0.902	0.864	0.018	0.610
Durbin–Watson	0.769	1.252	2.209	1.036

[2] Muallif hisob-kitoblari asosida shakllantirilgan.

Bir xodimga to‘g‘ri keladigan real investitsiyalar 1 foizga oshganda unumdorlik 0,32–0,35 foizga oshadi ($p < 0,01$), talabalar soni esa na joriy, na to‘rt yillik kechikish bilan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmadi. Daraja modellarida Darbin–Uotson ko‘rsatkichi past bo‘lgani uchun bu natijalarni uzoq muddatli bog‘liqlik sifatida talqin qilamiz; farqlar modeli (3-ustun) qisqa muddatda unumdorlik yiliga taxminan 4,7 foizlik trend bo‘yicha o‘sayotganini ko‘rsatadi. Oukun modelida (4-ustun) real YaHM o‘sishi 1 foiz bandga oshganda ishsizlik atigi 0,115 foiz bandga kamayadi va bu ta’sir ahamiyatsiz, ya’ni o‘sish bandlikka sust uzatilmoqda.

Bitiruvchilarni o‘zlashtirish koeffitsienti ham shu xulosani kuchaytiradi. 2011–2017-yillarda bitta oliy ta’lim bitiruvchisiga bandlikning o‘rtacha 8,4 kishilik sof o‘sishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2021–2025-yillarda bu ko‘rsatkich 3,5 ga, 2024-yilda esa 0,3 ga tushdi. Bitiruvchilar soni yiliga 8,6–9,7 ming nafarga yetgan bir paytda ish o‘rinlari shu sur’atda ko‘paymayapti. Bitta o‘qituvchiga talabalar sonining 14 dan 29 ga oshgani esa ta’lim sifatiga bosimni bildiradi.

Mehnat bozorida ijobiy siljishlar ham bor. Viloyatda o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2025-yil yanvar–sentabrda 4 833,7 ming so‘mni tashkil etib, 17,6 foizga o‘sdi (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, 2025c). Shu davrda YaHM deflyatori 108,0 foiz bo‘lganini hisobga olsak, real ish haqi taxminan 8,9 foizga oshgan (1,176 / 1,080 ≈ 1,089). Biroq Urganch shahrida ish haqi (6 650,0 ming so‘m) viloyat o‘rtachasidan 37,6 foiz yuqori: yaxshi haq to‘lanadigan ish o‘rinlari markazda to‘planmoqda, tumanlar esa bu farqni migratsiya orqali yopmoqda. Inson kapitali sifatini respublika miqyosida Jahon bankining HCI+ indeksi orqali qiyosladik (3-jadval).

Jadval 3

O‘zbekistonning HCI+ indeksi ustunlari (Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtachasiga nisbatan)[3]

Ustun	O‘zbekiston	Mintaqa o‘rtachasi	Farq
Sog‘liq	44	46	-2
Ta’lim	98	146	-48
Bandlik	28	48	-20
Jami HCI+ (325 ballik shkala)	170	240	-70

Eng katta orqada qolish ta’lim (48 ball) va bandlik (20 ball) ustunlarida. Bu Xorazm natijalariga mos: muammo ta’lim qamrovida emas, uning sifati va bandlikka aylanishida. Ayollar 151 ball, erkaklar 188 ball to‘plagan (World Bank, 2026); Xorazmda ayollar aholining qariyb yarmi ekanini hisobga olsak, bu farq foydalanilmayotgan katta salohiyatni anglatadi.

Muhokama

Xorazmda inson kapitali to‘planishi va undan foydalanish o‘rtasidagi uzilish L. Pritchett ta’riflagan holatga yaqin: ta’lim qamrovi tez kengaygan, ammo malakaga talab

[3] World Bank 2026.

va ta’lim sifati unga yetib ulgurmagan (Pritchett, 2001). Unumdorlikni asosan investitsiyalar harakatlantirayotgani esa J. Benxabib va M. Shpigel xulosasiga mos keladi: bitiruvchining bilimi zamonaviy uskuna va texnologiya bilan uchrashgandagina unumdorlikka aylanadi (Benhabib & Spiegel, 1994). Natijalarimiz S. Egamovning xulosasini (Egamov, 2026) inkor etmaydi, balki aniqlashtiradi: oliy ta’lim ta’siri YaHMning umumiy hajmida ko‘rinsa-da, bir xodimga to‘g‘ri keladigan unumdorlikda hali namoyon bo‘lmagan. Oliy ta’limdagi asosiy o‘sish 2020-yildan keyin boshlangani uchun bu samara keyinroq kuchayishi mumkin.

Tadqiqotning cheklovlari ham bor: K koeffitsienti pul o‘tkazmalarini hisobga olmaydi, kuzatuvlar soni 16 ta, real ish haqi esa YaHM deflyatori orqali taxminiy hisoblangan. Keyingi bosqichda tumanlar kesimidagi panel ma’lumotlardan foydalanish rejalashtirilgan.

Xulosa va takliflar

Xorazm viloyatida inson kapitali tez shakllanmoqda: talabalar soni ko‘paydi, bandlik darajasi 70,4 foizga yetdi, ishsizlik va kambag‘allik sezilarli kamaydi, real ish haqi oshmoqda. Ammo viloyat aholisi hamon respublika o‘rtachasi darajasida qiymat yaratmayapti (K = 0,63), unumdorlik asosan investitsiyalar hisobiga o‘smoqda, iqtisodiy o‘sish esa bandlikka sust uzatilmoqda. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz.

1. Qaytgan migrantlar ko‘nikmalarini tan olish tizimi. Xorijda qurilish, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarishda ishlagan fuqarolarning amaliy malakasini Urganch va Xivadagi kasb-hunar markazlarida qisqa imtihon orqali sertifikatlash, sertifikat egalariga mahalla loyihalarida ustuvor ish o‘rni va imtiyozli kredit berish lozim.@P 2. OTM va ish beruvchi o‘rtasida shartnomaviy amaliyot. Viloyatdagi 8 ta OTM har bir yo‘nalish bo‘yicha kamida bitta korxona bilan amaliyot shartnomasi tuzishi, talabaning amaliyotdagi natijasini ish beruvchi baholab, kredit tizimiga kiritishi kerak. Bu talabalarning 63 foizi qayd etgan amaliy ko‘nikma yetishmovchiligiga bevosita javob bo‘ladi. Shu bilan birga, bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar sonini bosqichma-bosqich 18–20 nafarga tushirish maqsadga muvofiq.

3. Investitsiya va kadr tayyorlashni bog‘lash. Yirik investitsiya loyihalarini tasdiqlashda mahalliy kadr tayyorlash rejasini majburiy qism sifatida talab qilish, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va Xiva turizmi klasterlarida dual ta’limni kengaytirish kerak. Tahlil unumdorlikni investitsiyalar harakatlantirayotganini ko‘rsatdi, shuning uchun bitiruvchi aynan shu investitsiyalar yaratgan ish o‘rniga yo‘naltirilishi lozim.

4. Ayollar bandligini kengaytirish. Tumanlarda masofaviy xizmatlar (buxgalteriya, dizayn, kontent), hunarmandchilik va Xiva turizmi bilan bog‘liq xizmatlar bo‘yicha ayollar uchun maqsadli o‘quv kurslarini tashkil etish taklif etiladi. HCI+ bo‘yicha 37 balllik gender farqi bu yo‘nalishning salohiyatini ko‘rsatadi.

5. Bo‘sh ish o‘rinlari reyestri va monitoring. To‘ldirilmayotgan 50 mingdan ortiq ish o‘rnini kasb bo‘yicha guruhlab, har chorakda ochiq reyestrda e’lon qilish va OTM qabul rejalarini shu reyestr bilan solishtirish kerak. K koeffitsienti va bitiruvchilarni o‘zlashtirish

koeffitsientini esa har yili tumanlar kesimida hisoblab, PF-223-son Farmondagi hududiy bandlik ko‘rsatkichlariga qo‘shimcha indikator sifatida kuzatish mumkin.

Xorazmda inson kapitalini to‘plash bosqichi asosan bajarildi, endi navbat undan foydalanishga. Ta’lim sifati, ish o‘rinlari va investitsiyalar bir tizimda rejalashtirilsagina viloyat yaratayotgan qiymat respublika o‘rtachasiga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. New York: NBER / Columbia University Press.
2. Benhabib, J., & Spiegel, M. M. (1994). The role of human capital in economic development: Evidence from aggregate cross-country data. Journal of Monetary Economics, 34(2), 143–173.
3. Docquier, F., & Rapoport, H. (2012). Globalization, brain drain, and development. Journal of Economic Literature, 50(3), 681–730.
4. Egamov, S. (2026). Oliy ta’lim tizimi rivojlanishining hududiy iqtisodiy o‘sishga ta’sirini ekonometrik baholash (Xorazm viloyati misolida). Muhandislik va iqtisodiyot, 4(8), 24–28. https://doi.org/10.5281/zenodo.22829579
5. Gennaioli, N., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2013). Human capital and regional development. Quarterly Journal of Economics, 128(1), 105–164. https://doi.org/10.1093/qje/qjs050
6. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2008). The role of cognitive skills in economic development. Journal of Economic Literature, 46(3), 607–668. https://doi.org/10.1257/jel.46.3.607
7. Kun.uz. (2026, 20 avgust). OTM talabalarining 63 foizi o‘qish jarayonida yetarli amaliy ko‘nikmalarni egallamayotganini bildirgan. https://kun.uz/news/2026/08/20/otm-talabalarining-63-foizi-oqish-jarayonida-yetarli-amaliy-konikmalarni-egallamayotganini-bildirgan
8. Lucas, R. E. (1988). On the mechanics of economic development. Journal of Monetary Economics, 22(1), 3–42. https://doi.org/10.1016/0304-3932(88)90168-7
9. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A contribution to the empirics of economic growth. Quarterly Journal of Economics, 107(2), 407–437. https://doi.org/10.2307/2118477
10. Okun, A. M. (1962). Potential GNP: Its measurement and significance. Proceedings of the Business and Economic Statistics Section, American Statistical Association, 98–104.
11. Pritchett, L. (2001). Where has all the education gone? World Bank Economic Review, 15(3), 367–391.
12. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102. https://doi.org/10.1086/261725
13. Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. American Economic Review, 51(1), 1–17.

14. World Bank. (2026). Human Capital Index Plus: Uzbekistan. https://thedocs.worldbank.org/en/doc/cc158c3deae38cd5d5b8d4f44560f7bd-0140012026/original/Uzbekistan.pdf

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). SIAT – ochiq statistik ma’lumotlar platformasi. https://siat.stat.uz

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida: PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr. https://lex.uz/docs/6600413

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PF-223-son Farmon, 2024-yil 20-dekabr. https://lex.uz/docs/-7271094

18. Xorazm viloyati hokimligi. (2026). 2025-yil yakunlari bo‘yicha rasmiy xabar. https://gov.uz/oz/xorazm/news/view/123912

19. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2025a). Yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, 2025-yil yanvar–sentabr. https://www.xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2025/09/YHM.pdf

20. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2025b). Xorazm viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 2025-yil yanvar–sentabr. https://www.xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2025/09/QX.pdf

21. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2025c). Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal ish haqi, 2025-yil yanvar–sentabr. https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2025/09/Ish%20haqi.pdf

22. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2026a). Xorazm viloyatida demografik holat, 2026-yil yanvar–mart. https://www.xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2026/03/demografik.pdf

23. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2026b). Yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, 2025-yil yanvar–dekabr. https://www.xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2025/12/YHM.pdf

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)